

ZAMONAVIY TIL TA'LIMI KONTEKSTIDA O'ZBEKISTON VA CHET EL UNIVERSITETLARIDA CHET TILLAR O'QITISH DASTURLARINING QIYOSIY TAHLILI

Muhammadova Gavhar Fazliddin qizi

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

2- bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro standartlar asosida chet tillar ta'lim dasturlari va bunga bog'liq bo'lgan O'zbekiston ta'lim dasturlarining kamchiliklari, afzalliklari va qiyosiy tahlili ifodalangan. Shu bilan birga, an'anaviy ta'lim va chet el ta'lim dasturlarining farqlari yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o'z ifodasini topgan. Shunga qaramasdan, hozirgi davrdagi jahon mamlakatlar ta'lim tizimi va uning rivoji haqida ham so'z borgan.

Kalit so'zlar. Chet tillar, chet el, ta'lim dasturlar, ta'lim tizimi, an'anaviy ta'lim tizimi, AQSH, Fransiya ta'limi, Finlyandiya, PISA, PIRLS, SMART, STEAM, o'qitish metodikasi, ratsionallik ta'lim jarayoni, O'zbekiston ta'lim tizimi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, innovatsion, sanoat, ma'naviy, madaniy dunyoqarashdagi o'zgarishlar ayrim jihatlari bilan mamlakatimizda ro'y bergan ikki Renessansning ilk yillarini, G'arbiy Ovrupaning Uyg'onish ma'rifat asrini eslatadi. Bugungi kunda dunyo ta'lim metodlari negizida kooperatsiya va hamkorlik prinsiplari turadi va bu ko'p jihatdan jamiyat va shaxsning, mehnat bozorining ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan. Bugungi kunda jahonda davom etayotgan ko'pgina ta'lim modellari mavjud, bular sirasiga an'anaviy, ratsionallik, insonparvarlik va ularning targ'ib qiluvchi ta'lim dasturlari xizmat qiladi.

Ta'limning an'anaviy modeli bu- yosh avlodga o'tmish, zamon va kelajak madaniyatining elementlarini uzatishga qaratilgan muntazam akademik ta'lim bo'lib hisoblanadi. Bunda mavjud milliy madaniy an'analarga asoslangan tayanch bilimlar, ko'nikmalar, kompetensiyalar individga o'rgatiladi va keyinchalik bundan murakkabroq bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoniga asoslanadi. An'anaviy ta'limda o'quvchiga bilim, ko'nikma va malakalar tizimi uzatiluvchi obyekt sifatida qaratiladi. Bunda birinchi navbatda o'quvchilarning tafakkuriga emas. Balki xotira mexanizmiga ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy ta'limning maqsadi oldindan belgilab berilgan xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirish etib belgilanadi. Natijalar ham shunga mos, ya'ni ta'lim natijalari va shaxsning ijtimoiylashuvi darajalari bilan baholanadi.

Keling, hozir O'zbekistonning ta'lim dasturlari va chet tillarga bog'liqligi haqida gaplashsak. Ko'pchilik chet tillar deganda ingliz tilini tushunishadi, ammo gap faqat bunda emas, nafaqat ingliz tili, balki rus tili, xitoy tili, koreys tillari ham O'zbekiston ta'lim dasturlariga kirib kelgandan so'ng, universitet, institut rahbarlari tomonidan talabalar uchun o'qitilmaydi. Butun O'zbekiston bo'ylab emas, ba'zi bir viloyat shaharlarda ta'lim dasturlariga o'zimiz o'rganayotgan tildan tashqari boshqa chet tillar ta'lim kontekstiga kiritilmaydi. Shu sababdan, talabalar va universitet rahbarlari tomonidan nizo va noroziliklar kelib chiqadi. Ammo Finlyandiya, AQSH, Fransiya, Germaniya va boshqa chet el mamlakatlarida STEAM, PIRLS, PISA ta'lim dasturlari asosida talaba-o'quvchilarga mukammal darajada samarali ta'lim beriladi. Shu bilar birga, 2020-yil 30-oktabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O'zbekistonda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

– Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon otalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi davlat rahbari yig'ilish avvalida. – Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi. – Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak, – dedi Prezident. Yig'ilishda bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqalayotgani qayd etildi. Shu bois maktab direktorlari va muallimlarga ko'p narsa bog'liq. Ular qishloq va shaharlarda ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat tarqatadigan fidoyi kishilardir. Maktablar nafaqat ta'lim maskani, balki mahallaning madaniy, intellektual markazi bo'lishi zarur. Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni

loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur hujjat <http://regulation.gov.uz/> portaliga qo'yilib, barcha hududlarda, mahalliy kengashlarda va maktab jamoalarida ota-onalar ishtirokida keng muhokama qilindi. Farmon loyihasida ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan. Jumladan, jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari aniq belgilab berilmoqda. Eng asosiysi, joylardagi rahbarlarning, shuningdek, mahalliy kengashlarning ushbu muhim masalaga yondashuvi va e'tiborini tubdan o'zgartirish, ularning mas'uliyati, javobgarligi va hisobdorligi mexanizmlari kiritilmoqda. Videoselektor yig'ilishida ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etib, ta'lim sifatini oshirishga oid vazifalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'qituvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi. Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri. – Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi. Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqib, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi. Yangi metodikani samarali yo'lga qo'yish uchun barcha maktab o'qituvchilari videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'qitiladi. Eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo'nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanadi. Shuningdek, matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika fanlari bo'yicha chet ellardagi ilg'or darsliklar chuqur o'rganib chiqiladi(1).

Endi esa isbot va dalil tariqasida chet el mamlakatlarining ta'lim dasturlari bilan tanishib chiqsak. Zero, bizning O'zbekistonda shunday zamonaviy o'qitish metodikalari, ta'lim dasturlari orqali yetuk kadrlar tayyorlashiga ishonch bildiramiz. Dunyoning rivojlangan davlatlari ta'lim modellarida an'anaviy, ratsionallik kabi ta'lim jarayon turlarining turli modifikatsiyalarini kuzatish mumkin. G'arb mamlakatlari ta'lim tizimlarida o'ziga xos umumiylik mavjud. Bu inklyuziv va bolani mustaqillikka o'rgatish, undagi o'ziga xoslikni rivojlantirishga yo'naltirilganlik bo'lib hisoblanadi. Bu ayrim mamlakatlarda saqlanib qolayotgan an'anaviy, tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan tubdan farq qiladi.

AQSH. AQSHning davlat maktablarida bolalarning 90%i bepul ta'lim olishadi.

Mamlakatda ta'lim standartlari va o'quv dasturlari har bir shtat boshqaruvi tomonidan belgilanadi. Maktabga chiqayotgan bolaning yoshi 5 yoshdan 8 yoshgacha bo'lishi kerak. Ularda maktab davomiyligi sentabrda iyungacha, 170-180 kun davom etadi va 3 marta ta'til beriladi. Eng yoqqan tomoni – baholash tizimi A, B, C, D, F harflar bilan baholanib, bunda A- 5ga, B-4ga, C-3ga, D-2ga va F-1 ga teng deb olinadi. Yakuniy testlarga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarga sinflar kesimida emas, balki individual holatda olinadi.

Fransiya. “Fransiyada tarbiyadan maqsad- o'zida yuksak axloqiy sifatlar, fazilatlar, ziyolilik, sog'lom mushohadalik ruhida tarbiyalanganlikni o'z Vatanida qabul qilingan xushxulqlik bilan uyg'unlashtirib, takomiliga yetkazgan fransuzdir”(2)

Fransiyada bolalarning aksariyati davlat mamlakatlarida bepul o'qishadi. Bilishimcha, ko'p mamlakatlarning davlat mamlakatlarida o'quvchilar bepul ta'lim olishadi. Ularda baholash mezoni 20 ballik, ya'ni 19-a'lo, 8-qoniqarsiz deb olinadi. Sentabrda iyulgacha dars bo'ladi, shu orada 3 semestrda ajratiladi. 5ta ta'til. Mamlakat A, B, C zonalarga ajratilgan, har xil sanalarda ta'til boshlanadi. Shuningdek, Fransiyada ota-onalar bolalarini bo'sh vaqtini har xil konkurslar, to'garaklar va qo'shimcha darslar bilan band qilib qo'yishadi, chunki ularning kelajaklarini faravon bo'lishini xohlashadi.

Finlyandiya. Bu mamlakatning ta'lim dasturi bo'yicha top 5 likka kiradi. Mamlakatdagi maktablar asosan davlat maktablari bo'lib, ularga yagona, o'zmas talablar qo'yilgan. Maktablarda qalamdan tortib to tushlikkacha bepul. O'qituvchi ismini aytib murojaat qilishadi. Maktabga chiqayotgan bola 7-8 yosh bo'lishi kerak. Baholash mezoni 10 ballik, 9-a'lo, 3- qoniqarsiz deb olinadi. O'quvchilar maktab davrida imtihon topshirishmaydi, faqatgina litseyda bor. Ularning olgan baholari sir saqlanadi, bir-birlariga taqqoslashmasliklari sabab. Har bir bola bilan individual holatda shug'ullanishadi. Texnologiya darslari biz kabi o'g'il-qizlar bo'lib o'qitilmaydi. Bichish, tikish, to'qish, duradgorlik ishlari bilan hamma birgalikda shug'ullanadi.

Eng asosiysi, o'quvchilarga birinchi sinfdan boshlab o'z haq-huquqlarini o'rgatib borishadi. Misol uchun, huquqlari buzilganda, qanday qilib ijtimoiy xodimga arz qilishlari o'rgatiladi.

Xulosa. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim bo'yicha xalqaro ta'lim loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Ta'lim bo'yicha xalqaro loyihalar oliy ta'lim muassasalariga dunyoning rivojlangan davlatlaridagi yirik oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini yaratish va joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, ERASMUS+ loyihasi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, ularni sinxronizatsiyalash, shuningdek, ularni savodxonliklarini oshirgan holda samarali ta'lim berishni amalga oshirib kelmoqda.(3) O'zbekiston ham boshqa chet davlatlar kabi SMART, PIRLS ,

PISA, STEAM dasturlarini o'zimizga moslashtirgan holda bilimlarni kompetensiyalash orqali malaka oshirishga qaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>
2. <https://www.livelib.ru/book/1000207790-velichie-zdravogo-smysla-chelovek-epohi-prosvescheniya>
3. <https://library.samdpi.uz/ebooks/view?id=18355>

